Я da r_i to'g'ri chiziq kartinaga nisbatan ixtiyoriy burchak ostida (parallel ham, $\text{рефе}^{\wedge}1\text{ки}1\text{аг}$ ham, 45° burchak ostida ham emas)



berilgan bo'lsa, 4-qoidaga asoslanib S ko'rish nuqtasidan unga parallel chizib, ufq chizig'ida uchrashish nuqtasi, aytaylik, F , nuqta aniqlanadi. Endi, r_i chiziq kartina asosi bilan kesishguncha davom et-tiriladi va K_{if} da N_K topiladi. N_K nuqta F , bilan tutashtirilsa, n to'g'ri chiziqlarning perspektivasi aniqlanadi. «to'g'ri chiziqlardagi A' va B' nuq- J talarning o'rni ulardan kartina asosiga perpendikular yoki 45° burchak ostida chizilgan chiziqlar vositasida aniqlanadi (1.8-rasm, a). »





Kartinada ushbu jarayonni tashkil qilish F uchrashish nuqtasini qanday aniqlash kerakligidan boshlanadi.

2. S' dan n to'g'ri chiziqqa parallel chiziq chizilib, ufq chizig'ida uning uchrashish nuqtasi F , aniqlanadi.

3. n to'g'ri chiziqdagi A' va B' nuqtalarning perspektivalari kartinaga perpendikular chiziqlar o'tkazish orqali aniqlanadi. Qolgan ishlarning bajarilishi chizmadan tushunarlidir (1.8-rasm, b).



To'g'ri chiziq H ga ham, K ga ham og'ma bo'lsa, bunday to'g'ri chiziqlar *umumiy vaziyatdagi chiziqlar* deb yuritiladi. Bunday to'g'ri chiziqlar, o'z navbatida, ikki turga *pasayuvchi* va *ko'tariluvchilarga* ajratiladi.



Pasayuvchi chiziq pastga yo'naltirganda H ni, yuqoriga yo'naltirganda A' ni kesib o'tadi (1.9-rasm, a va b).

Ko'tariluvchi to'g'ri chiziq pastga yo'naltirilganda A'' kesadi, ammo yuqoriga yo'nalganda A'' ni kesmasligi mumkin. Lekin uning pastga yo'nalishi davom ettirilsa, Km A dan pastda (yoki yuqorida) kesishi mumkin (1.10-rasm, a va b).

Shunday umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlarning perspekti-valarini yuqorida qayd etilgan qoida va yasashlardan foydalanib ba-jarish mumkin.



o'ng tomonga yo'naltirilib, OP bilan kesishtiriladi va B_l dan vertikal chiziq chizib, C darajasidagi C , topiladi. PC , chiziq orqali uning balandligi 2,2 m aniqlanadi. AB tasvir chap tomonga yo'naltirilib, OP da $A/$ nuqta topiladi. Kasr nuqta $PD, /2$ ni A_l bilan tutashtirib da-vom ettirilsa, uning 1,4 m ichkaridaligi aniqlanadi (2.9-rasm). Enuqta esa 4 m ichkarida joylashgan. Shu tartibda perspektivada tasvir-langani barcha narsalarning haqiqiy o'lchamlarini aniqlash mumkin.

2.2 Perispektiv tasvir qurishning rasim chizishdagi tadbig`i

Aksonometrik proyeksiyada arxitektura obyektining shaxsiy va tushuvchi soyalarini yasash 2.1-rasmda tasvirlangan. Obyektdan tushayotgan soya oldin H tekisligiga, keyin V tekisligiga tushmoqda.

1. Ma'lumki, H ga perpendikular, ya'ni vertikal chiziqlardan tushayotgan soyalar yorug'lik nurining H dagi proyeksiyasi s' ga parallel, uning V dagi soyasi o'ziga parallel tasvirlanadi. V ga perpendikular to'g'ri chiziqning H ga tushgan soyasi o'ziga parallel tasvirlanadi. W ga perpendikular to'g'ri chiziqning H va V dagi soyasi o'ziga parallel tasvirlanadi. Ushbu qoidalarni hisobga olgan holda berilgan obyektdan tushuvchi soyalar bajariladi.


A dan 5 ga, A' dan s' ga parallel chiziq chizib topiladi. Shu tartibda B_H , C_H , E_H nuqtalar ham aniqlanadi. Bu nuqtalarning tushuvchi soyalari qoidaga muvofiq tutashtirib chiqiladi. E_H dan s' ga parallel chizilgan to'g'ri chiziq X o'qini E nuqtada kesadi va undan o'ziga parallel, ya'ni vertikal chiziq chiziladi.

2. O' va O'_1 markaz nuqtalardan s' ga parallel hamda O' va O'_1 lardan s'' ga parallel chiziqlar chizib, ularning V dagi soyalari O_V va O_{IV} lar aniqlanadi. O_V va O_{IV} nuqtalardan, qoidaga muvofiq, obyektidagi yarimaylanalarga teng bo'lgan yarimaylanalar chiziladi va ularga urinma chiziq o'tkaziladi. Shunda obyektdan tushayotgan soyaning umumiy konturi hosil bo'ladi.

3. Obyektidagi ochiq joydan H va V ga tushayotgan yorug'lik o'rni aniqlanadi. Buning uchun 1 nuqtadan s' ga parallel chiziq chiziladi, 2 nuqtadan past tomon asosigacha shtrix chiziq chiziladi va 2' nuqta topiladi. 2' dan yana s' ga parallel chizilgan chiziq X o'qigacha davom ettiriladi hamda $2X$ nuqtadan vertikal chiziq chiziladi. Shu tartibdan 46 qirradan tushayotgan soya aniqlansa, ochiq joydan tushayotgan yorug'lik chegarasi aniqlanadi.

4. Obyektning shaxsiy va tushuvchi soyalari bo'yab qo'yiladi.

Interyer (xonaning ichki ko'rinishi) xona jihozlaridan tushuvchi va shaxsiy soyalar yasalsin (2.2-rasm).



2.1-rasm

1. Xona shiftida osilib turgan elektr lampochkasining pol, chap va o'ng devorlar hamda shift tekisliklaridagi proyeksiyalari - S' , S'' , S''' , S_{IV} nuqtalar o'rni aniqlanadi. Buning uchun shift bo'yicha ufq chizig'iga parallel qilib to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Yon devor vashift tekisliklarining kesishayotgan chiziqlarida 1 va 2 nuqtalar, devorlar bo'yicha vertikal chiziqlarning pol tekisligi bilan kesishayotgan chiziqlarida 3 va 4 nuqtalar belgilanib, ular o'zaro tutashtiriladi.

S dan pol va devor tekisliklariga perpendikular chiziqlar o'tkazilib S', S'', S''' va lampochkaning shiftdagi asosida S^{IV} nuqtalar topiladi.

2. S' nuqta bilan bog'liq bo'lgan uy jihozlari stol va shifonerdan tushayotgan soyalar aniqlanadi. Shifoner qirrasi AB dan tushayotgan soya A_v nuqtada sinib, chap yon devorga tushmoqda.

3. Stoldagi CC' va CD chiziqlardan tushayotgan soyalarni yasash kabi stolning boshqa qirralaridan tushayotgan soyalari bajariladi. To'rdagi eshikning o'rni qirrasidan tushayotgan soya ochiq turgan eshikning ostki qirrasiga L_H nuqtada sinib, eshik tekisligigatushmoqda.

4. Ro'paradagi devorga biriktirilgan tokcha (polka) dan devorga tushayotgan soya

6. Shiftga mahkamlangan to'rtburchakli prizmadan tushayotgan soya yasaladi. Buning uchun S^{IV} va T_1 hamda S va T nuqtalar tutashtirilib, bu chiziqlarning o'zaro kesishidan T_{H1} nuqta topiladi. T_{H1} nuqta P bilan tutashtirilib tushayotgan soya aniqlanadi.

7. Uy jihozlarining barchasidagi shaxsiy soyalar aniqlanadi


Loyihalanayotgan binoning soyasini yasashda uning haqiqatga yaqinligini ta'minlash uchun Quyoshning o'rnini, ya'ni S_1 Quyosh asosini va Quyoshning S'' perspektivasini to'g'ri tanlash kerak. S' nuqta ufq chizig'ining xohlagan nuqtasida olinishi mumkin. SS' kesmaning uzunligi esa Quyosh nuri bilan Yer orasidagi burchakka bog'liq. Shu sababli uning o'lchami ixtiyoriy emas, balki tabiatdagi haqiqiy ko'rinishiga yaqin darajada olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.3-rasmda arxitektura binosining perspektivasi va ss' yorug'lik yo'nalishi berilgan. Bu bino perspektivasi arxitektorlar usulida yasalgan. Obyektning shaxsiy va tushuvchi soyalari quyida keltirilgan bosqichlar orqali aniqlanadi.

1. Binoning perspektivasi to'liq quriladi va yorug'lik yo'nalishi (s, s') belgilanadi. Yorug'lik yo'nalishi orqali binoga urinma tekisliklar o'tkazilib, obyektning yoritilgan va yoritilmagan (shaxsiy soya) qismlari aniqlanadi. Obyektning ana shu yoritilgan va yoritilmagan qismlarini ajratib turgan shaxsiy soyasi konturining xarakterli nuqtalarini narsalar tekisligi hamda unga parallel bo'lgan obyektning gorizont tekisliklaridagi o'rni (proyeksiyalari) belgilab olinadi.

2. Obyektning soya tashlovchi qirralarining narsalar tekisligidagi proyeksiyalari perspektivasi hisoblangan $1', 5', A', N', M'$ nuqtalaridan yorug'lik nurining i dagi proyeksiyasining s' perspektivasiga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. $1, 5, A, N, M$ nuqtalaridan s' yorug'lik nuri yo'nalishiga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. s va s' larga parallel qilib o'tkazilgan to'g'ri chiziqlar mos ravishda kesishib, $1, 5, A, N, M$ nuqtalarning narsalar tekisligiga tushgan $1_H 5_H, A_H N_H, M_H$ soyalarini aniqlaydi.

Yorug'lik yo'nalishi kartinaga paralel bo'lganligi uchun obyektning vertikal qirra ($11', 22', 55', MM'', EE', 44'$)larining soyalari ham kartinaga parallel bo'ladi. Gorizont qirra ($12, 2B, AN$) larning soyalari F_1 va F_2 lar tomon mos ravishda yo'nalgan bo'ladi.




2.3-rasm

3. Bu bosqichda binoning ochiq piizmatik o'yig'ini tashkil qilgan EE_1 , EL va 44_1 qirralarning 126_13_1 gorizontall hamda 44_1L_1L vertikal yuzalarga tashlagan soylari aniqlanadi. Buning uchun E va 4 , nuqtalardan s' ga, E va 4 nuqtalardan s ga parallel chiziqlar o'tkazib, ularning 126_13_1 gorizontall yuzaga tushgan E'_H va $4'_H$ soylari aniqlanadi (chizmada $4'_H$ nuqta ko'rsatilmagan). E'_H nuqtani F_2 bilan tutashtirib, EL qirraning tushgan soylasi yasalanadi. Chizmadan ko'rinib turibdiki, EL qirraning tushgan soylasining bir qismi 44_1L_1L vertikal yuzaga tushar ekan. Qirraning ana shu vertikal yuzaga tashlangan soylasini aniqlash uchun E nuqtaning shu yuzaga tekishgiga tushgan E'_c soylasini aniqlash kerak. Buning uchun E' nuqtadan s' ga parallel chiziq o'tkazib, uning vertikal yuzaga tekisligining gorizontall izi bilan kesishgan nuqtasi belgilanadi va shu nuqtadan vertikal chiziq chiqariladi. Vertikal chiqarilgan chiziq bilan E nuqtadan s ga parallel o'tkazilgan chiziq o'zaro kesishib uning E' soylasini beradi. L nuqta E_c bilan tutashirilib, EL gorizontall qirraning 44_1L_1L yuzaga tushgan soylasi aniqlanadi.

Barcha aniqlangan shaxsiy va tushivchi soya yuzalari bo'yab chiqiladi.

2.3 Perispektiv tasvirning soyasini qurishdagi yoritish manbalari.

Sun'iy (markaziy) yoritish manbayi. Sun'iy yoritishda yorug'lik manbalari (elektr lampochkasi, sham, fonar va boshqalar) buyum-dan uncha uzoq bo'lmagan masofada, ya'ni uch o'lchamli fazo so-hasida joylashgan bo'ladi va ular nuqtaviy manbalar deyiladi. Markaziy yoritishda yorug'lik nuri buyumga urinib, piramida yoki konus sirtini hosil qiladi. Markaziy yoritishdan, asosan, interyerda soya yasash uchun foydalaniladi. Agar yoritish manbayi ikki va undan ko'p bo'lsa, u holda tushuvchi soyalarning bir qismi ustma-ust tushadi.



2.1-rasm


Shunda ikkita tushuvchi soyaning ustma-ust tushgan qismi to'liq soya, ustma-ust tushmagan qismi esa yarimsoya hisoblanadi. Interyerda soya yasash orqali xona jihozlari va yoritish manbayi o'rinlari loyiha jarayonida tekshiriladi hamda eng maqbul varianti tanlanadi. Markaziy yoritishda soya bajarish uchun yorug'lik manbayi va uning soya tushuvchi tekislik yoki sirtlardagi proyeksiyalari berilishi kerak.

2.2-rasm, a da perspektiva apparati va narsalar tekisligiga tik bo'lgan hamda B nuqtasi unda yotgan AB kesma berilgan. S sun'iy yoritish manbayidan taralayotgan nurlar AB kesmaning Hdagi BA_H soyasini hosil qiladi. B nuqta narsa tekisligida yotganligi uchun uning soyasi o'zi bilan ustma-ust tushadi. Buning uchun AB kesma orqali nurlar tekisligi o'tkaziladi va u narsalar tekisligi bilan kesishib, AB kesmaning H dagi soyasini beradi. Demak, S yorug'lik manbayini A nuqta bilan, uning $\mathcal{A}$ dagi S' proyeksiyasini esa B nuqta bilan tutashtirib, yorug'lik tekisligi o'tkaziladi. SA va $S'B$ chiziqlar o'zaro kesishib, A nuqtaning narsa tekisligidagi A_H soyasini beradi.


Bu jarayonni perspektivada bajarish uchun AB kesma va SS' larning kartinadagi

perspektiv tasvirlari quriladi. So'ngra S nuqta A_K bilan, S_1 esa B_K bilan tutashtiriladi va ularning kesishgan nuqtasi A_{KH} belgilanadi. $B_K A_{KH}$ chiziq $A_K B_K$ kesmaning soyasi bo'ladi. 2.2-rasm, b da yuqoridagi jarayonning ish vaziyati, ya'ni kartinaning o'zida AB kesmaning soyasini bajarish ko'rsatilgan. Bunda ham SA va $S_1 B_K$ chiziqlar o'zaro kesishib, A_{KH} ni aniqlaydi, A_{KH} - A nuqtaning, $B_K A_{KH}$ kesma esa AB kesmaning perispektivadagi soyasidir.

2.3-rasmda yorug'lik manbai S , konus sirti va ertical vaziyatdagi $ABCE$ to'g'ri to'rtburchak (tekislik) berilgan. $ABCE$ ning soyasi xuddi bundan oldingi misoldagi AB kesmaning soyasini aniqlaga-nimizdek yasaladi. Konus sirti ham narsa tekisligiga va $ABCE$ to'g'ri to'rtburchakka soya tashlaydi. Buning uchun S' ni konus uchi



2.2-rasm



2.3-rasm

T ning narsa tekisligidagi T' proyeksiyasi bilan, S ni esa T uchi bilan tutashtirib, T_H soya aniqlanadi. T_H nuqtadan konus asosiga urin-ma o'tkazib, uning H dagi soyasi hosil qilinadi.

$1T_H$ va T_{H2} chiziqlar AE ni 3 va 4 nuqtalarda kesadi hamda shu yerda konusning yerdagi soyasi sinadi. Konusning $ABCE$ tekislikdagi soyasini yasash uchun T konus uchining vertikal tekislikdagi T_c soyasi aniqlanadi. 3 va 4 nuqtalar T_c bilan tutashtirilib konusning $ABCE$ dagi soyasi hosil qilinadi. Konusning shaxsiy soyasi $1T$ va T_2 chiziqlar bilan chegaralanadi.


Agar to'g'ri chiziq kesmasi H dan ma'lum balandlikda bo'lsa, undan tushayotgan soyani bajarishda H dagi proyeksiyasi $A'B'$ aniqlab olinishi zarur. Shundan so'ng S' dan $A'B'$ nuqta orqali o'tuvchi yorug'lik nurining H dagi proyeksiyasi o'tkaziladi. S yorug'lik manbayi A va B lar bilan tutashtiriladi hamda ularning $S'A'$ chiziq bilan kesishgan A_H va B_H nuqtalari aniqlanadi. Berilgan kesmaning H ga tushayotgan soyasi $A_H B_H$ hisoblanadi (2.4-rasm, a).

Narsalardan tushuvchi soyalar yo'nalishi yorug'lik manbayining asosi narsaga nisbatan qanday joylashganligiga bog'liq (2.4-rasm, b). Masalan, $S'B$ chiziq ufq chizig'iga parallel tasvirlanadi. Bu yerda yoritish manbayi va narsa frontal tekislikda joylashgan bo'ladi. $S'_1 B$ vaziyatda yorug'lik manbayi kuzatuvchining orqa tomonida, $S'_2 B$ holatda esa yorug'lik manbayi kuzatuvchining old tomonida joylashgan bo'ladi (2.4-rasm, b).


Tekis shakldan tushayotgan soya to'g'ri chiziq kesmasidan tushayotgan soya kabi bajariladi (2.5-rasm, a, b). Birinchisida tushayotgan soya tekis shaklning oldiga tushayotganligi sababli, uning orqa tomoni yorug'. Ikkinchi holatda yorug'lik tekis shaklning old tomonida bo'lgani uchun undan soya orqa tomonga tushmoq-da. Tushayotgan soyalar tahlil qilinsa, tekis shaklning vertikal qirralaridan tushayotgan soyalar S' bilan bog'liq bo'lib, u bilan kesishmoqda yoki undan chiqmoqda.

Gorizontal chiziqlar ufq chizig'ida qaysi nuqtada uchrashayotgan bo'lsa, ulardan tushayotgan soyalar ham o'sha nuqtada o'zaro kesishiadi, chunki ular o'zaro parallel hisoblanadi. Bundan keyin ushbu qoidalarga asoslanib, narsalardan tushayotgan soyalarni qiynalmay bajarish mumkin bo'ladi. Masalan, prizmadan tushayotgan soya chegaralari


vertikal qirralardan S' ga, gorizontal qirralardan tushayotgan soylari F_1 ga yo'nalishi e'tiborga olinadi (2.6-rasm).



2.4-rasm



2.5-rasm




2.6-rasm

I-masala. Vertikal silindrning tushayotgan va shaxsiy soylari bajarilsin (2.7-rasm).

1. S' dan sirt asosiga urinma chiziqlar o'tkazilib, sirtidagi yorug' soya va chegarasini aniqlovchi AC va BE yasovchilari aniqlanadi. S dan silindr ustki asosining soya tomonidagi M nuqta orqali urinma nur o'tkaziladi va $S''M$ chiziqda soyasi M_H topiladi.

2. AC va BE yasovchilardan tushayotgan soyalar aniqlanadi. Silindrning ustki asosidan tushayotgan soya ellips bo'lgani uchun C va E oralig'ida ixtiyoriy nuqtalar tanlab olinadi va ularning soylari yuqoridagidek aniqlanadi.

3. Barcha topilgan nuqtalar ravon tutashtirib chiqiladi va shaxsiy soya belgilab qo'yiladi.




2.7-rasm

Tabiiy (parallel) yoritish manbayi. Tabiiy yoritish manbayi sifatida bizdan juda uzoqda (shartli-cheksiz uzoqlikda) joylashgan Quyosh va Oy qabul qilingan. Ulardan taralayotgan yorug'lik nurlari o'zaro parallel deb hisoblanadi va bunday yoritishga parallel yoritish deyiladi. Parallel yoritishda yorug'lik nurlari buyum sirtiga urinib, prizma yoki silindr sirtini hosil qiladi. Quyoshning perspektivasini S va uning asosi

perspektivasini S' deb qabul qilaylik. Quyosh perspektivasi S ufq chizig'idan yuqorida yoki pastda va uning asosi S' perspektivasi hamma vaqt ufq chizig'ida joylashadi. Faqat Quyosh chiqayotganda va botayotganda S va S' lar gorizont chizig'ida ustma-ust bo'lib qoladi.

2.8-rasm, a da perspektivaning geometrik apparati, S yorug'lik yo'nalishi va narsa tekisligiga perpendikular o'rnatilgan AB kesma berilgan. A nuqtaning narsa tekisligidagi soyasini yasash uchun AB kesma orqali nurlar tekisligi o'tkazib, uning narsa tekisligi bilan kesishgan chizig'i yasaladi. Bu chiziq B nuqtadan o'tib, S yorug'lik manbayining H dagi S' asosi tomon yo'nalgan bo'ladi. Bu yerda S' yorug'lik nuri yo'nalishi S ning H dagi proyeksiyasi hisoblanadi. Endi A nuqta orqali S yorug'lik yo'nalishiga parallel bo'lgan to'g'ri chiziq o'tkaziladi va uning B nuqtadan S' yo'nalishga parallel qilib o'tkazilgan chiziq bilan kesishgan nuqtasi A_H belgilanadi. A_H nuqta A nuqtaning narsa tekisligidagi soyasi, BA_H kesma esa AB kesmaning soyasi bo'ladi.



2.8-rasm

Quyoshning kartinadagi perspektivasini hosil qilish uchun ko'rish nuqtasi O dan S yorug'lik yo'nalishiga va uning narsalar tekisligidagi S' proyeksiyasiga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Bu chiziqlar kartina tekisligi bilan kesishib, S va S' nuqtalarni beradi.


Kartinadagi S nuqta yorug'lik nuri yo'nalishi, S' nuqta uning narsalar tekisligidagi proyeksiyasining uchrashish nuqtalari hisoblanadi. Ko'rish nuqtasi O orqali AB

kesmaning perspektivasi $A_K B_K$ yasaladi. $A_K B_K$ kesma soyasining perspektivasini yasash uchun S nuqtadan A_K orqali, S' nuqtadan B_K orqali to'g'ri chiziqlar o'tkazib, ularning kesishish nuqtasi A_{KH} topiladi. A_{KH} — A nuqta soyasining perspektivasi, $B_K A_{KH}$ kesma esa AB kesma soyasining perspektivasi bo'ladi. 2.8-rasm, b da AB kesma soyasini kartina tekisligining o'zida yasash ko'rsatilgan. Bu yerda S nuqta A_K bilan S' nuqta B_K bilan tutashtirilgan va ularning kesishgan A_{KH} nuqtasi aniqlangan. $B_K A_{KH}$ kesma $A_K B_K$ kesmaning soyasi bo'ladi.

Arxitektura inshootlarini loyihalashda tabiiy yoritish manbayi (Quyosh)dan tushayotgan nurlar va ulardan hosil bo'ladigan soyalar e'tiborga olinadi. Kuzatuvchining Quyoshga yoki Quyoshning kuzatuvchiga nisbatan egallagan vaziyati har xil bo'lishi mumkin. Quyida kuzatuvchiga nisbatan Quyoshning xarakterli vaziyatlari keltirilgan (2.9-rasm).

1. Quyosh oldin (narsalar fazosi)da, chapda joylashgan.
2. Quyosh oldin (narsalar fazosi)da, o'ngda joylashgan.
3. Quyosh orqa (mavhum fazo)da o'ngda joylashgan.
4. Quyosh orqa (mavhum fazo)da chapda joylashgan.
5. Quyosh chapda, yorag'lik nuri kartinaga parallel vaziyatda bo'ladi. Yorug'lik yo'nalishining uchrashish nuqtasi bo'lmaydi.
6. Quyosh o'ngda, yorag'lik nuri kartinaga parallel vaziyatda bo'ladi.
7. Quyoshning o'ngda ko'tarilish yoki botish payti. Bunda buyumning tushuvchi soyasi uzunligini aniqlab bo'lmaydi.
8. Quyoshning chapda ko'tarilish yoki botish payti. Bunda ham buyumning tushuvchi soyasi uzunligini aniqlab bo'lmaydi. Biroq buyum soyasi ortida uni to'sib turuvchi biror tekislik yoki sirt joylashgan bo'lsa, uning tushuvchi soyasini aniqlash mumkin bo'ladi.

Narsalar tekisligiga perpendikular bo'lgan barcha to'g'ri chiziqlarning tushuvchi soyasi yorag'lik nuri yo'nalishining narsalar tekisligidagi proyeksiyasi perspektivasining uchrashish nuqtasi S' tomon yo'nalgan bo'ladi. Har qanday gorizontaal to'g'ri chiziqning tushuvchi soyasining tushish nuqtasi ufq chizig'ida bo'ladi.




2.9-rasm

Geometrik jismlarning shaxsiy va tushuvchi soyalarini yasash.

2.10-rasmda piramidadan tushayotgan soyani yasash ko`rsatilgan.

Buning uchun:

1. Piramida uchi T dan s ga, T' dan s' ga parallel ravishda o'tkazilgan chiziqlar o'zaro kesishib, pramida uchidan tushayotgan soya T_H aniqlanadi.



2.12-rasm

2-masala. Prizmatik qutining shaxsiy va tushuvchi soyalari ba-jarilsin (2.12-rasm).

1. AA' qirrasidan tushayotgan A_H soya AS va $A'S'$ chiziqlarning o'zaro kesishuvidan hosil bo'ladi.

2. A_H ni F_2 bilan tutashtirib, CS chiziqda C_H aniqlanadi va AC dan tushayotgan A_H C_H soya topiladi. C_H nuqta F_1 bilan tutashtiriladi. Shunda CE qirradan tushayotgan soyaning quti vertikal qirrasigacha bo'lgan qismi tasvirlanadi.

3. Qutining ichki qismiga tushayotgan soyasi BS va $B'S'$ chiziqlarning o'zaro kesishishidan topilgan B_H ni F_2 bilan tutashtirib aniqlanadi. Bu soya CE' ostki-ichki qirrada sinib, vertikal davom etadi va ES chiziqning E_v nuqtasida yakunlanadi.

Bu yerda yorag'lik chapdan orqa tomonda, ya'ni mavhum fazodagi Quyoshdan tushmoqda.

3-masala. Vertikal silindrning shaxsiy va tushuvchi soyalari yasalsin (2.13-rasm). Bu yerda Quyosh oldinda chapda, ya'ni narsalar fazosida joylashgan.


1. S' nuqtadan silindr asosiga urinma chiziqlar o'tkaziladi. Shunda silindrning AB yasovchisidan CD yasovchisigacha bo'lgan shaxsiy soyasi chegarasi aniqlanadi.

2. AB va CD yasovchilardan tushayotgan soyalari A_H va C_H yasaladi. A_H va C_H oralig'idagi tushuvchi soya silindrning ustki asosidan tushayotgan egri chiziq bo'ladi.

3. Silindrning shaxsiy soya qismida bir nechta ixtiyoriy yasovchilari tanlab olinadi va ulardan tushayotgan soylar aniqlanadi.

4. Hamma topilgan nuqtalar ravon tutashtirib chiqiladi.

yo'naladi va L nuqta S bilan tutashtiriladi. SL va $A_H F_2$ lar o'zaro kesishib, L nuqtaning soyasi L_H ni beradi. Parallelepipedning L nuqtasidan o'tuvchi bizga ko'rinmayotgan gorizontaal qirrasining soyasi F_1 tomon yo'nalgan bo'ladi.



2.14-rasm

Endi 12345678 kabi nuqtalar bilan chegaralangan va 1238 yog'i ABCE tekislikda yotgan kichik parallelepipedning tushuvchi soyasi aniqlanadi. Buning uchun kichik parallelepipedning narsalar tekisligidagi proyeksiyasi hosil qilinadi. $4', 5', 6'$ nuqtalar S' bilan tutashtirilib, ularning BC chiziqni kesib o'tgan $5'_c, 4'_c$ va $6'_c$ nuqtalari aniqlanadi. Bu nuqtalardan vertikal bog'lovchi chiziqlar o'tkaznadi. 4, 5 va 6 nuqtalar S bilan tutashtiriladi va ularning o'tkazilgan vertikal chiziqlar bilan mos ravishda kesishgan $4_c, 5_c$ va 6_c nuqtalari belgilanadi. $14_c 5_c 6_c 3$ tekis ko'pburchak kichik parallelepipedning ABCE vertikal tekislikka tushgan soyasi hisoblanadi. Katta parallelepipedning ABLN, kichik parallelepipedning 1254 va 2365 yoqlari ularning shaxsiy soyalari bo'ladi. Aniqlangan shaxsiy va tushuvchi soyalar bo'yab qo'yiladi.

UMUMIY XULOSA

Biz o`z izlanishimiz natijalarida shunday xulosaga keldikki pirispiktivik tasvirlarni o`quvchilarga urgatishda, tivarak atrofimizni o`rab turgan olamdagi mavjud geometrik shakllarni pirispiktivik tasvirlarni yasash orqali urgatish juda yaxshi samara beradi

Shakllarning bizga ma'lum bo'lgan barcha geometrik xossalarini ularning chizmalaridan olingan ma'lumotlardan ham aniqlasa bo'ladi. Shuning uchun ham buyumlarning chizmalarini ularning geometrik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi tekis geometrik modellar deb atash mumkin.

Pirispiktivik tasvirlarlashda quyidagilarga alohida etibor qaratish zarur, fazoviy shakllarning tekislikdagi tasvirlari, ya'ni tekis modellari (chizmalari)ni yasash, tekis chizmada geometrik masalalarni grafik yo'l bilan yechish, shakllarning berilgan tekis chizmalari bo'yicha ularning fazoviy urinishi va vaziyatini tasavvur qilish hamda yaqqol tasvirlarini yasash va geometrik shakllarning chizmalarini bajarish va o'qish orqali o'quvchining fazoviy tasavvurini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.	Islom Karimov YUKSAK MA`NAVIYAT – YINGILMAS KUCH Toshkent “Ma`naviyat” 2008
2.	O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. –T., 1997.
3.	O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4.	O`zbekiston Respublikasining Davlat ta`lim standarti, T.2003.
5.	J.Y.Yodgorov, F .R. Sobirov, NJ.Yodgorov “GEOMETRIK VA PROYEKSION CHIZMACHILIK” T–2007
6.	Дембинский С. И. ва Кузменко В.И. «Чизмачилик ўқитиш методикаси» пед. Институтлар учун қайта ишланган. 2-нашр таржима Т-1973
7.	С. И. Д Е М Б И Н С К И Й. Моделирование в черчении. М., Учпедгиз, 1957
8.	Рахмонов И. ва бошқалар. Чизмачилиқдан машқ ва масалалар тўплами. Т. «Ўқитувчи». 1990.
9.	Рахмонов И.Т. Чизмачилиқдан дидактик ўйинлар – Т- 1992.
10.	Рахмонов И. Чизмаларни чизиш ва ўқиш. - Т. «Ўқитувчи». 1992.
11.	Ёдгоров Ж. ва бошқалар. Чизмачилик - Т. «Ўқитувчи». 1992
12.	Қирғизбоев Ю. ва бошқалар. Машинасозлик чизмачилиги курси.

	Т-1981.
13.	Будасов Б. Строительное черчение - М. «Просвещение» 1990.
14.	Мерзон Э.Д. ва бошқалар. Задачник по машиностроитель- ному черчению. - М. «Высшая школа», 1990.
15.	Исаева М. Чизмачиликдан топшириқлар.- Т. «Ўқитувчи». 1992.
16.	П.Одилов ва бошқалар. Чизмачилик., - Т. ТДПУ. 2000.
17.	www.nbgf.intal.uz